XALQ DEPUTATLARI OHANGARON TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 6 - yanvar VI-93-2-10-134-K/24 Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli qonuniga muvofiq va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xati hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-85-121-10-0-K/23-sonli “Toshkent viloyatining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlarini inobatga olib, Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Ohangaron tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Merganovning Ohangaron tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida bergan hisoboti ma’umot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Ohangaron tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 94 497 110,0 so‘m va xarajatlari 137 852 150,0 so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2024-yil uchun Ohangaron tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2024-yil uchun tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan Ohangaron tuman mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6.2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2024-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8.2024-yil uchun Ohangaron tumanining zaxira jamg‘armasi hajmi tasdiqlangan umumiy byudjet xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida 1 222 526,0 so‘m etib belgilansin.

Tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9.2024-yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig`inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 7- ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari

kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi dekloratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq‘;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) Viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda

belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

d) viloyat byudjeti hamda tuman byudjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman va tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

e) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tuman mahalliy byudjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

12.O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va ‘’Obod mahalla’’ dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida ‘’Ochiq byudjet’’ axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Viloyat byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tumanlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi belgilanganligi;

d) Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman byudjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6.0 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

e) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13.Ohangaron tuman hokimi o‘rinbosari (Sh.Azamatov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Merganov), Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev), tuman hokimligi va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14.Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16.Majburiy ijro byurosi Ohangaron tuman bo‘limi (R.Azimov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar

bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17.Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (A.Uralov) va tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18.Tuman hokimligi tegishli bo‘limlari bo‘sh turgan ob’ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi (S.Urazbayev) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

19.Tuman hokimligi tegishli bo‘limlari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Merganov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

20.Tuman hokimligi tegishli bo‘limlari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev), Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan

doimiy nazorat o‘rnatsin.

21.Ohangaron tuman suv ta’minoti bo`limi (H.Yuldashev), Irrigatsiya bo`limi (I.G`ofurov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musaev) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga va iste’molga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22.Tuman Ichki ishlar bo‘limi (U.Jo‘raev), tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (I.Bekov), Davlat xizmatlari markazi tuman bo‘limi (Sh.Ko‘chimova) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

23.Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24.Tuman kadastr bo`limi (A.Baratov) va Davlat soliq inspeksiyasi (I.Musayev) tomonidan hamkorlikda tumandagi turar va noturar bino-inshootlarning kadastr hujjatlari qayta hatlovdan o`tkazilsin va hujjatlari yo`q ob`ektlarning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish ishlarini tashkil etib, soliq solish bazasini kengaytirish choralarini ko`rsin.

25.Tuman hokimligi:

Tuman byudjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha

mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman Xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

26.Tuman hokimi o‘rinbosari (Sh.Azamatov), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28.Ohangaron tuman hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

29.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Ibragimov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Azamatov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Ohangaron tumani Kengashi raisi

E.M.Muxitdinov

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron tuman byudjeti daromadlarining

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**94 497 110,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 747 250,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 832 600,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	572 000,0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 088 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 335 000
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq (noruda)	4 351 000,0
7	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	148 000,0
8	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	7 810 200,0
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 236 600,0
10	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	2 605 200,0
11	Aylanmadan olinadigan soliq	2 088 300,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	14 788 000,0
13	**Aksiz solig‘i jami**	**18 895 000,0**
	Shu jumladan:	
	• Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	8,191,000
	• Mobil aloqaga aksiz solig‘i	3,299,000
	• Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	7,405,000

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Ohangaron tuman byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar - jami	**137,852,037**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**82,705,199**
1.1	**Maorif**	**23,522,297**
	- maktabgacha ta’lim	13,663,452
	- umumiy ta’lim	9,858,845
1.2	Sog‘liqni saqlash	52,925,980
1.3	Madaniyat	1,140,674
1.4	Sport	4,776,843
1.10	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	18,400
1.15	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	321,005
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**21,122,727**
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4,000,000
2.3	Obodonlashtirish	12,199,914
2.9	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1,062,290
2.14	Fermerlar buhgalteriyasini saqlash xarajatlari	455,407
2.17	Veterinariya qo‘mitasi	1,085,119
2.20	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2,319,997
5.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**18,424,679**
8.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1,222,526**
9.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**14,376,906**

9.1	Tashabbusli byudjet tadbirlari	14,376,906

Xalq deputatlari Ohangaron tuman Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Ohangaron tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Ohangaron tumani**	15	10	5	5	15	30	100	100

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
4-ilova

Ohangaron tuman byudjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Ohangaron tuman	94 497 150	137 852 037

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
5-ilova

Ohangaron tuman byudjetiga 2024-yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori

ming so‘mda

T/r	Tuman va tumanlar	Summa
1	Ohangaron tuman	43 354 887

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
6-ilova

Ohangaron tuman byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘ miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Ohangaron tuman	610 638,0

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (so‘mda)
1	Alisher MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
2	G`alla-quduq MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
3	Gulobod MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
4	Go`shsoy MFY	0,90	34 965,0	0,90	314,69
5	Yonariq MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
6	Ilg`or MFY	1,05	40 792,5	0,90	314,69
7	Qiziloy MFY	1,10	42 735,0	0,90	314,69
8	Qorasuvyoqa MFY	1,05	40 792,5	1,05	367,13
9	Ko`ksaroy MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
10	Quyun MFY	1,05	40 792,5	1,10	384,62
11	Uvak MFY	1,10	42 735,0	1,05	367,13
12	Oybuloq MFY	1,00	38 850,0	1,10	384,62
13	Sanam MFY	1,00	38 850,0	1,05	367,13
14	Susam MFY	1,00	38 850,0	1,05	367,13
15	Telov MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
16	Toshariq MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
17	Tut MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
18	Ubayd MFY	1,00	38 850,0	1,10	384,62
19	Ungut MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
20	O‘zbekiston MFY	1,10	42 735,0	1,30	454,55
21	Chet-suv MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
22	Chinor MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76

23	Chuvildoq MFY	1,00	38 850,0	1,05	367,13
24	Shovg`oz MFY	1,00	38 850,0	1,05	367,13
25	Shodmalik MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
26	Eyvalek MFY	1,00	38 850,0	1,00	349,65
27	Yalpoqtepa MFY	1,10	42 735,0	1,30	454,55
28	Yangihayot MFY	0,70	27 195,0	0,70	244,76
29	Yangiobod MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62
30	Nurobod MFY	1,30	58 275,0	1,30	454,55
31	Ozodlik MFY	1,00	38 850,0	1,00	349,65
32	Qaroxtoy MFY	1,10	42 735,0	1,30	454,55
33	Ovjazsoy MFY	1,00	38 850,0	1,05	367,13
34	Sartamg‘ali MFY	1,10	42 735,0	1,10	384,62

Xalq deputatlari Ohangaron tuman
Kengashining
2024-yil 6-yanvardagi
VI-93-2-10-134-K/24-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdori

T/r	Tuman nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Ohangaron tuman	0.90	900 000